

# **Angor tumanida 17 mln yevrolik charmdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmoqda**



Angor tumanida “Top Quality Brand” MChJ tomonidan yiliga 120 mln kvadrat metr yoki 220 ming juft poyabzal ishlab chiqarish quvvatiga ega charmdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmoqda.

Loyiha to’liq quvvatda ishga tushirilgach 300 ta ish o’rni yaratilishi belgilangan bo’lib, hozirda Italiya va Turkiya davlatlaridan keltirilgan ishlab chiqarish dastgohlarini o’rnatish ishlari olib borilmoqda. Korxonaning ishga tushirilishi ichki bozorni sifatli poyabzal va charm attorlik mahsulotlari bilan ta’minlash imkonini beradi. Yillik eksport hajmi 5 mln dollarga yetkazilib, byudjetga tushum 5 mlrd so’mga ortadi.

Viloyat hokimi mazkur loyiha doirasida olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi. Tadbirkor bilan suhbatda, loyihani belgilangan muddatda amalga oshirish, ish o’rinlarini to’liq yaratish bo'yicha tavsiyalar berildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)